

1. **(B-2 ball)** Tog' cho'qqisi dengiz sathidan 320 m baland, metro tunneli esa dengiz sathidan 18 m past joylashgan. Ushbu tavsifga mos keladigan butun sonlar to'g'ri yozilgan javobni toping.

A) +320; -18 B) +320; +18 C) -320; -18 D) -320; +18

2. **(B-2 ball)** Sonlar o'qida $A(8)$ va $B(-3)$ nuqtalar orasida koordinatasi butun son bo'lgan nechta nuqta bor?

A) 11 ta B) 9 ta C) 10 ta D) 12 ta

3. **(B-2 ball)** Quyidagi ta'rif, tushuncha va aksiomalardan qaysi biri noto'g'ri berilgan?

A) Bitta to'g'ri chiziqqa perpendikulyar bo'lgan ikki to'g'ri chiziq o'zaro perpendikulyar bo'ladi.

B) Bir nuqtadan chiquvchi ikki mordan iborat shakl burchak deyiladi.

C) Burchakning gradus o'lchovi burchak tomonlari orasidan o'tuvchi ixtiyoriy nur ajratgan burchaklar gradus o'lchovlari yig'indisiga teng.

D) Bir-birini to'ldiruvchi nurlardan tashkil topgan burchak yoyiq burchak deyiladi.

4. **(B-2 ball)** Quyidagi jadvalda burchaklar va burchak turlari nomlari keltirilgan. Burchaklarni kattaligiga qarab ularning turlarini mos keltiring.

Burchaklar	Turlari
I. 91°	A. to'g'ri burchak
	B. o'tmas burchak
II. 180°	C. yoyiq burchak
	D. o'tkir burchak

A) I-C; II-D; B) I-B; II-B; C) I-B; II-C; D) I-B; II-A;

5. **(Q-2,6 ball)** $6|b| + |-a| - 2|-9|$ ifoda qiymatini $a = -15$ va $b = -24$ bo'lgan hol uchun hisoblang.

A) 141 B) 177 C) 111 D) 121

6. **(Q-2,6 ball)** Tenglamani yeching: $(-17) + 8 - x = -7 + (-10)$

A) 8 B) -8 C) -26 D) 26

7. **(Q-2,6 ball)** Muzlatkichdan olingan ichimlikning boshlang'ich harorati -6°C . Uni $+9^\circ\text{C}$ gacha isitish kerak. Ichimlik har daqiqada 3°C ga isiydi. Kerakli haroratga yetishi uchun necha daqiqa kerak?

A) 1 B) 3 C) 9 D) 5

8. **(Q-2,6 ball)** Hisoblang: $(4)^2 \div (-2)^3 - (-5)^2 \times 3$

A) -77 B) 73 C) -73 D) 77

9. **(Q-2,6 ball)** Hisoblang: $-1\frac{5}{12} + 2\frac{7}{18} - 3\frac{1}{9}$

- A) $2\frac{5}{36}$ B) $4\frac{1}{12}$ C) $\frac{25}{36}$ D) $-2\frac{5}{36}$

10. (Q-2,6 ball) Bir traktorchi ekin maydonini 6 kunda, ikkinchi traktorchi shu maydonni 8 kunda, uchinchi traktorchi esa 24 kunda shudgor qila oladi. Agar uchala traktorchi bir kun birgalikda ishlasa maydonning qancha qismi shudgor qilinmay qoladi?

- A) $\frac{3}{4}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{1}{4}$


11. (Q-2,6 ball) AB , BC , CD va DE kesmalar o'zaro teng (rasmga qarang). Agar $AD = a$ bo'lsa, CE kesma uzunligi nimaga teng bo'ladi?



- A) $\frac{a}{3}$ B) $\frac{2a}{3}$ C) a D) $\frac{4a}{3}$

12. (Q-2,6 ball) Chizmada berilgan ma'lumotlardan foydalanib, noma'lum burchak $\angle ABD = x$ burchak qiymatini toping.

- A) 30°
B) 40°
C) 45°
D) 35°



13. (Q-2,6 ball) Soatning soat mili 20 minutda necha gradusga buriladi?

- A) 20° B) 10° C) 25° D) $7,5^\circ$

14. (Q-2,6 ball) Beshta to'g'ri chiziq tekislikni eng ko'pi bilan nechta qismga ajratishi mumkin?

- A) 14 B) 11 C) 16 D) 15

15. (M-3 ball) Kamayuvchidan (-20) ni ayirib, ayriluvchiga (-45) ni qo'shilsa ayirma qanday o'zgaradi?

- A) 25 ga ortadi B) 65 ga kamayadi C) 65 ga ortadi D) 25 ga kamayadi

16. (M-3 ball) Uzunligi $AB = 20$ cm bo'lgan kesma berilgan. C nuqta AB nurda belgilandi. AC va BC kesmalar uzunliklari yig'indisi uchun quyidagi tasdiqlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

Tasdiqlar	to'g'ri	noto'g'ri
1. $AC + BC > 20$ cm bo'lishi uchun C nuqta B nuqtadan keyin joylashishi kerak.		
2. $AC + BC < 20$ cm bo'lishi uchun C nuqta faqat A va B nuqtalar orasida bo'lishi kerak.		

A) noto'g'ri, noto'g'ri; B) noto'g'ri, to'g'ri;

C) to'g'ri, to'g'ri; D) to'g'ri, noto'g'ri;